

HAFTALIK PEDAGOGIK AMALIYOT DAVRIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING MAHORATINI O'RGANISHNI LOYIHALASHNING PEDAGOGIK MAZMUNI**Tashpulatova D.M.***Chirchiq davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi***Abduqahhorova F.N.***Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi*

Annotatsiya: maqolada haftalik pedagogik amaliyot davrida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mahoratini o'rganishni loyihalashning pedagogik mazmuni masalasi to'g'risida fikr yuritilgan va metodik tavsiyalar taqdim qilingan.

Kalit so'zlar: haftalik pedagogik amaliyot, boshlang'ich sinf o'qituvchilari, mahorat va uni o'rganish, pedagogik loyihalash, mazmun va ko'nikma.

“O‘zbekiston-2030” strategiyasida boshlang‘ich ta‘limni rivojlantirish va uning sifat ko‘rsatkichlariga erishish vazifasi qo‘yilgan[1]. Mazkur vazifaning ijrosi jarayonida amaliy faoliyatdagi boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mahorati talabalar tomonidan o‘rganilishi ham muhim o‘rin tutadi. Bu o‘rinda e‘tiboringizni ana shu masalaning pedagogik loyihalash mazmuni tahliliga tortamiz.

O‘zbekistonda o‘z kasbining ustasi bo‘lgan, tajribali va mohir boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ko‘pchilikni tashkil qiladi. Shu sababli bunday tajribali o‘qituvchilarning mahoratini o‘rganish bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini tarkib toptirishda muhim o‘rin tutadi. Bunda pedagogik loyihalash usulidan foydalanish kutilgan samarani berishi bilan diqqatni tortadi. Shu jihatdan bu o‘rinda e‘tiboringizni “pedagogik loyihalash” tushunchasining mazmuni tahliliga tortamiz.

Pedagogik loyihalash tizimida muhim mazmun va xususiyatlar mavjud. Shu ma‘noda mazkur tushunchaning quyidagi *jihatlari*ni idrok etish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

- 1) pedagogik loyihalash ma‘nosi;
- 2) pedagogik loyihalash maqsadlari;
- 3) pedagogik loyihalash turlari.

Pedagogik loyihalashning *ma‘nosi* “o‘quv maqsadiga erishishdagi samarali metodlardan biri bo‘lib, mustaqil bilim olish orqali tegishli malakalarni o‘zlashtirishni” anglatadi[2]. Shu ma‘noda pedagogik loyihalash vositasida ta‘lim va tarbiyaga oid muayyan muammoning yechimi mustaqil topiladi.

“Pedagogik loyihalash” atamasi Pedagogika faniga XX asr boshlarida kirib kelgan bo‘lib, u o‘qitishning istiqbolli metodi sifatida e‘tirof etilgan. Chunki loyiha asosida o‘qish va o‘rganish mustaqil ishlash, fikr yuritish va mustaqil o‘zlashtirish

imkoniyatlarini beradi. Shu ma'noda aynan mustaqil harakat tamoyiliga tayangan pedagogik loyihalash metodi bir asrdan ko'p vaqt davomida Pedagogika fanida amalda bo'lib kelmoqda. Bunda ayniqsa, dars jarayonida loyihalarga asoslanish mavzularni va o'quv materiallarini tez o'zlashtirish imkonini beradi. Shu sababli pedagogika fanlari doktori, professor Jo'ra G'aniyevich Yo'ldoshev quyidagi fikrni bildirgan: "Loyihalar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda bo'lajak o'qituvchilar o'zlarining pedagogik tajribalariga suyanadi, yechim qidiradilar, axborotlarni bir-biridan farqlaydilar va ularni qayta ishlaydilar". Demak, pedagogik loyihalash metodi vositasida ta'lim va tarbiyaga oid muayyan muammoning yechimini tez topish mumkin. Shu jihatdan pedagogik loyihalash - "bu ta'limning mazmuniy qismini ishlab chiqishdan iborat bo'lib, ta'limning umumiy va aniq maqsadlarini rejalashtirishdir". Bunday yondashuv pedagogik loyihalash atamasining ma'no-mazmunini tashkil qiladi.

Pedagogik loyihalashning *maqsadlari* keng bo'lib, ularning asosiylarini quyidagilar tashkil qiladi:

- a) bo'lajak o'qituvchilarning loyihalash tafakkurini shakllantirish;
- b) bo'lajak o'qituvchilarning nazariy bilimlarini hayotiy vaziyatlarda qo'llash bilan bog'liq holda tarkib toptirish;
- v) bo'lajak o'qituvchilarda hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish.

Pedagogik loyihalashning asosiy maqsadlaridan bo'lgan bo'lajak o'qituvchilarning loyihalash tafakkurini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Chunki loyihalash tafakkuri bo'lajak o'qituvchilarning muayyan muammolarini o'rganish, darslarni maqsadli o'tish va o'zlashtirish jarayonini kutilgan darajada amalga oshirish ishlarini tizimlashtiradi. Shu sababli pedagog olimlar har bir o'qituvchining loyihalash tafakkuriga ega bo'lishini alohida ta'kidlashadi. Oliy pedagogik ta'lim jarayonida majburiy (mutaxassislik) fanlarini o'qitish vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining loyihalash tafakkurini tarkib toptirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Pedagogik loyihalashning asosiy maqsadlaridan biri bo'lajak o'qituvchilarning nazariy bilimlarini hayotiy vaziyatlarda qo'llash bilan bog'liq holda tarkib toptirishdir. Unga ko'ra, bo'lajak o'qituvchilar o'z nazariy bilimlarini turli va murakkab hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish malakasiga ega bo'lishi kerak. Shu ma'noda pedagogik loyihalash nazariya va amaliyot uyg'unligiga asoslanadi. Mazkur maqsad vositasida pedagogik loyihalash metodidan foydalanish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining amaliy ko'nikmalarini kuchaytiradi.

Pedagogik loyihalashning muhim maqsadlaridan biri bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida hamkorlik ko'nikmasini rivojlantirishdir. Bunda bo'lajak o'qituvchilar ta'lim va tarbiya masalalari bo'yicha hamkasblari, mutaxassislar hamda o'quvchilar bilan oqilona hamkorlikka tayanishi kerak. Shu jihatdan hamkorlik maqsadga erishishning jamoaviy yo'li bo'lib, u pedagogik loyihalash metodida muhim masalalardan biri hisoblanadi.

E'tibor berilsa, pedagogik loyihalash metodining eng muhim maqsadlari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini loyihalash tafakkuri, nazariya va amaliyot uyg'unligi hamda faoliyatda hamkorlik ko'nikmalari bilan qurollantirishdan iborat.

Pedagogik adabiyotlarda pedagogik loyihalashning bir necha *turlari* tahlil qilib o'tilgan. Bunday pedagogik loyihalashning asosiy turlari quyidagilardan iborat:

- a) tadqiqotga asoslangan loyihalash;
- b) ijodiy faoliyatga asoslangan loyihalash;
- v) axborotli loyihalash;
- g) telekommunikatsion loyihalash[3].

Pedagogik loyihalashning *tadqiqotga asoslangan* turi muhim xususiyatlarga ega bo'lib, unda ilmiy izlanishga asoslangan asosida muayyan mavzu yoki o'quv materiallari o'zlashtiriladi. Misol uchun, boshlang'ich sinf o'qituvchisi biror maqbul o'qitish metodini o'zlashtirishi uchun ilmiy izlanish olib boradi. Ilmiy izlanishda o'zlashtiriladigan muammoning yoki o'quv materialining maqsadi, ob'yekti, predmeti va vazifalarini aniqlashga e'tibor qaratadi. Buning natijasida ta'lim va tarbiyaga oid biror masala ilmiy jihatdan o'zlashtiriladi.

Pedagogik loyihalashning *ijodiy faoliyatga asoslangan* turi ham muhim xususiyatlarga ega. Bunda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quv mashg'ulotlarini olib borish, tarbiyali tadbirlarini uyushtirish va o'quv materiallarini to'plashda ijod qilish faoliyatiga asoslanadi. Misol uchun, biror mavzuni o'ziga xos yangicha yondashuv asosida o'tish ham ijodiy faoliyatga kiradi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari dars mashg'ulotlari, tarbiyaviy tadbirlar va o'quv materiallarini ijodiy tayyorlash ko'nikmalari bilan qurollantirilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Pedagogik loyihalashning muhim turlaridan biri *axborotli loyihalashdir*. Unga ko'ra, ma'lumotlar yig'ish, ularni tizimlashtirish, qayta ishlash, tahlil qilish va umumlashtirish ishlari amalga oshiriladi. Buning natijasida ta'lim va tarbiyaga oid biror masala yangi hamda muhim ma'lumotlar asosida hal qilinadi. Shu sababli pedagog olimlar keyingi paytlarda kompyuter o'quv-texnik vositasidan foydalangan holda axborotli loyihalashdan keng foydalanishni tavsiya etishmoqda. Chunki bunda mavzularni o'tishda yangi ma'lumotlardan foydalanish muhim o'rin tutadi.

Pedagogik loyihalashning navbatdagi muhim turlaridan biri *telekommunikatsion loyihalashdir*. Unga ko'ra, ta'lim va tarbiyaga oid biror masala kompyuter, TV, planshet kabi kommunikatsion texnik vositalar asosida o'zlashtiriladi. Buning natijasida o'zlashtirilayotgan masala va muammo qisqa muddatda o'rganiladi. Shu sababli oliy pedagogik ta'lim jarayonida pedagogik loyihalashning mazkur turidan keyingi paytlarda keng foydalanilmoqda. Pedagogik loyihalashning telekommunikatsion shakli keng imkoniyatlarga egaligini eslatib o'tish joiz.

Pedagogik loyihalash vositasida ta'lim va tarbiyaga oid muayyan muammoni o'rganish tizimli yondashuv mexanizmlarini beradi. Shu sababli pedagog olimlar

tomonidan pedagogik loyihalash vositasida ta'lim va tarbiyaga oid muammolarni o'rganish masalasiga alohida e'tibor qaratadi. Bu o'rinda bizni pedagogik faoliyatda loyihalashning jarayon, vaziyat va tizim sifatidagi ahamiyati qiziqtiradi. Shu jihatdan haftalik pedagogik amaliyot davrida *boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mahoratini pedagogik loyihalash vositasida tadqiq etish* muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi va 2022 yil 11 maydagi "2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish Milliy dasturi to'g'risida"gi Qarori bilan oliy pedagogik ta'lim muassasalarida o'qitish 4+2 tizimiga, ya'ni haftaning 4 kunida auditoriyada nazariy mashg'ulotlar va qolgan 2 kunida ta'lim muassasalarida amaliy mashg'ulotlar o'tish jarayoni tashkil qilindi[4]. Bu mamlakatimiz oliy ta'lim tarixida yangi hodisa bo'lib, unda nazariy bilimlarni amaliyot sinovidan o'tkazishga asoslaniladi. Buning natijasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy-nazariy bilim va kasbiy-amaliy ko'nikmani uyg'un tarkib toptirishga erishilmoqda. Shu jihatdan oliy ta'lim jarayoniga "haftalik pedagogik amaliyot" tushunchasi kirib keldi. Aynan mana shu tizim vositasida pedagogik loyihalash orqali umumiy o'rta ta'lim maktablarida amaliy faoliyat ko'rsatayotgan boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mahoratini o'rganish asosini tashkil qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. "O'zbekiston-2030" strategiyasi. // www.ziyonet.uz.
2. "2022-2026 yillarda xalq ta'limini rivojlantirish Milliy dasturi". www.ziyonet.uz.
3. Hasanboyev J., To'raqulov Ch., Haydarov M., Hasanboyeva O., Usmanov N. *Pedagogika fanidan izohli lug'at*. -T.: "Fan va texnologiya". 2009.
4. Yo'ldoshev J.G'. *Ta'limimiz istiqboli yo'lida*. -Toshkent, 2007.
5. Tashpulatova D. *Boshlang'ich ta'limda klaster yondashuv asosida o'quv fanlarini integratsion o'qitish mexanizmlarini takomillashtirish*. -Toshkent, 2023.
6. Muxammadievich, J. A. (2019). Historical basis of peacemaking ideas. *South Asian Journal of Marketing & Management Research*, 9(2), 44-48.
7. Muhammadievich, J. A. (2023). THE MORAL SIGNIFICANCE AND SOCIAL NECESSITY OF PEACEMANSHIP. *Web of Discoveries: Journal of Analysis and Inventions*, 1(8), 27-35.
8. Жўраев, А. (2020). Тинчликпарварлик – маънавий юксалиш жараёнининг юксак қадрияти. *ilm sarchashmalari*, 1(1), 32-35.
9. Жураев, А. (2019). Физическая культура и спорт как инструмент патриотического, миротворческого и духовно-нравственного воспитания молодежи. *конференции*, 1(1), 246-247.

10. Жураев, А. (2019). Ўзбекистонда барқарор тараққиётнинг тинчликпарварлик тамойили билан узвийлиги. НамДУ илмий ахборотномаси, 7-сон, 143-148.
11. Ташпулатова, Д. М. (2023). Халқаро таълим дастурлари асосида интеграцион ўқитиш механизмлари. *Образование наука и инновационные идеи в мире*, 18(3), 53-63.
12. Муқимовна, Т. Д. (2022). Mehnatning barkamol avlod tarbiyasidagi orni. *Scientific Impulse*, 1(4), 1811-1812.
13. Tashpulatova, D. M., Salomova, M. K. (2023). Integration of primary education disciplines learning problem. International scientific-online conference INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 16(1), 140-144.
14. Tashpulatova, D. M. (2022). Boshlang 'ich ta'limning tashkiliy hujjatlari. *Academic research in educational sciences*, 3(9), 342-347.
15. Ташпулатова, Д. М. (2021). Бошланғич синф ўқувчиларини таълимнинг кейинги босқичларига тайёрлаш. МУҒАЛЛИМ, 6(12), 78-80.
16. Tashpulatova, D. M. (2021). Primary School Teachers Professiogram. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(05), 11-15.
17. Жабборова, О. М., & Ташпулатова, Д. М. (2021). Бошланғич таълим методикаси. *Экономика и социум*, (10 (89)), 1358-1360.
18. Ташпулатова, Д. М. (2021). ЎҚИТИШНИНГ КРЕДИТ-МОДУЛЬ ТИЗИМИ АСОСИДА ОЛИЙ БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМНИ ТАШКИЛ ЭТИШ. *Экономика и социум*, (11-2 (90)), 1056-1060.
19. Жабборова, О. М. (2021). Ташпулатова Дилором Муқимовна, Бошлаётган синф уқитувчиларига қуйиладиган талаблар. *Academic research in educational sciences*, (3), 575-582.
20. Ташпулатова, Д. М. (2021). Бошланғич синфларда жисмоний тарбия машғулотларини кластер усулида ташкил этиш. *Academic research in educational sciences*, 2(6), 33-36.